

SINONIM SO‘ZLARNING AHAMIYATI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI QIYOSI MISOLIDA)

E‘zoza Hosiljonova

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Har bir tilda so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo tillari safida hech qanday til yo‘qki, o‘zining ma‘nodosh variantiga ega bo‘lmasa. Jumladan, o‘zbek va ingliz tillarida sinonim so‘zlarning qo‘llanilishi o‘rni va ularning ahamiyati bor. Ushbu maqolada ana shular haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sinonim so‘z, bosh so‘z, leksik sinonimiya, uslub, emotsional bo‘yoq, frazeologizm.

Аннотация: В каждом языке типы слов имеют особое значение по соотношению формы и значения. В рядах мировых языков нет языка, не имеющего своего синонимического варианта. Включая этого, важно использование синонимов в узбекском и английском вариантах. Вот о чём эта статья.

Ключевые слова: синоним слово, ключевое слово, лексическая синонимия стиль эмоциональная окраска, фразеология.

Annotation: According to the form and meaning of the words their types play an important role in each language. There is no language in the world that would not have any alternative to their meaning. For example the usage of synonymous words in Uzbek and English languages has its place and hold importance. This article will have a look at these things.

Key words: Synonym word, main word, lexical synonymy, stylish emotional hue, phraseology.

Har bir tillarning asosini so‘z tashkil qiladi va u ma‘lum emotsional yoki funksional vazifa bajaradi. Nutqimizda so‘zlarning keragidan ortiq takrorlanmasligi uchun, nutqimizning ravon hamda chiroyli chiqishi uchun, tilimizning so‘z boyligini ko‘rsatib bera olish uchun sinonim, ya‘ni ma‘nodosh so‘zlarning o‘rni katta desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sinonimlar¹ (yunoncha “synonymos” bir nomli) bir umumiy ma‘noga ega bo‘lgan (denotativ ma‘nosi bir xil, qo‘shimcha (konnotativ ma‘nosi (ekspressiv uslubiy va boshqa munosabat kabilarni ifodalovchi xususiyatlari) bilan o‘zaro farqlanadigan til birliklari – so‘z, ibora, sintaktik birlik va boshqalar sinonim so‘zlar hisoblanadi. Masalan: kulmoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq kabi.

Leksik sinonimiya² leksemalarning bir xil ma‘no anglatishiga ko‘ra guruhlanishidir: yelka, kift, o‘miz (birinchi guruh) ; in, uya, oshyon (ikkinchi guruh); nur, shu‘la, yog‘du,

¹ Hojiyev .A. “ O‘zbek tilining sinonimllar lug‘ati” Toshkent 1974 – B 157

² Jamolxonov H “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili ”- Toshkent , 2013 -yil B 281



ziyo (uchinchi guruh) va boshqalar. Bunday guruhlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar yoki sinonimik uyalar deyiladi. Har bir sinonimik qatorda:

1. Sinonim munosabatda bo'lgan leksemalarning ideografik semalari o'zaro tengdir, ammo konnotativ semalari (baho semalari) har xil bo'ladi.

Masalan : ozod, erkin, hur, sarbast leksemalari bitta denotatni – “ o'z erki, haq – huquqiga egalikni ataydi (shuning uchun denotativ sema atash semasi deb ham yuritiladi). Biroq bu leksemalarning mazmunida o'zaro farqlanuvchi konnotativ semalar (ifoda semalari, baho semalari) ham bor. Xususan, erkin leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, ozod leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, hur leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, sarbast leksemasi esa eskirgan, kitobiydir.

Qiyos qilsak : erkin nafas olmoq (67, 2 –tom, -451).

Toki bizdan olis avlodlarga ozod va obod vatan qolsin

(I.A.Karimov). Yashnayotgan el tillarda doston, Qutlug` nomi hur O'zbekiston (Sh.Mirziyiyev). Podshoning nikohida bo'lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisoblashmay, ko'pincha ularni qo'lga olib, sarbast yashaydilar;

2. Ifoda semalari ba`zan darajalanadi: yuz, bet, aft, bashara, turq leksemalarining barchasida, salbiy bo'yoqli semalar bor, biroq semalarda salbiy bo'yoqning ifodalanish darajasi har xil : u “bet” dan “ turq”qa tomon ortib, kuchayib boradi.

Qiyos qiling:

U betlari yumdalangan, oppoq sochlari yulingan bu telba xotinni o'zining qirq yillik umr yo'ldoshiga o'xshata olmadi (M.Ismoilov).

Sherbekning ko'ziga Xo'jabekovning aftidan naqs tomayotgandek jirkanch bo'lib ko'rinib ketdi (S.A).

U bir ko'ngli, borib muttaham qozining tumshug'iga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi (M.ismoilov).

Devor ustida turgan o'n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko'chirib olib, Mulla Norqo`ziga o'xtaldi : “Xu o'l, turqing qursin” (A.Qodiriy).

3. Ifoda semalari bo'lmagan betaraf ma'noli leksemalar sinonimik qatorning dominantasi sanaladi. Chunonchi yuz, bet, aft, bashara, turq (dominanta –yuz) ; nur, shu'la, yog'du, ziyo (dominanta - nur) ; yolg'iz, yakka, tanho (dominanta- yolg'iz) kabi. Bulardan yuz (birinchi qatorda), nur (ikkinchi qatorda) va yolg'iz (uchinchi qatorda) leksemalari betaraf ma'nolidir.

4. Sinonimik qatordagi barcha leksemalar tilning grammatik sathida bir so'z turkumiga birlashadi : bahor va ko'klam (ot), chiroyli va go'zal (sifat), so'zlamog va gapirmog (fe'l) kabi. Demak, sinonimik qatordagi leksemalarning sememasidagi integral semalar tilning leksik va grammatik sathlari o'rtasidagi aloqa- munosabatlar uchun ma'lum imkoniyat yaratadi.



5. Sinonimik qatordagi leksemalarning eng kam miqdori ikkita bo'ladi, biroq bu miqdor turli lisoniy va nolisoniy ta'sirida ortib borishi mumkin. Ular o'zaro o'xshash va farqli belgi – xususiyatlarga asoslangan paradigmani hosil qiladi, shuning uchun har bir sinonimik qatorni semantik mikrosistema (kichik paradigma) deb qarash ham mumkin.

6. Sinonimik qatordagi dominanta shu qatordan yuqoriroq darajadagi paradigmaga a'zo bo'lib kirishi ham mumkin. Masalan: ko'k, zangori, moviy leksemalaridan iborat sinonimik qatordagi dominanta (ko'k leksemasi) "rang-tus" semasi bilan birlashuvchi paradigmaga (oq, qizil, sariq, ko'k, yashil kabi leksemalar guruhiga) kiritilishi mumkin, ammo yuqoridagi sinonimik qatorda bor bo'lgan boshqa leksemalar (moviy, zangori) mazkur paradigmaga kiritilmaydi, chunki bu leksemalarning ma'nolarini betaraf (neytral) emas, ularning ma'nolarida badiiy uslubga xoslik belgilari bo'rtib turadi. (Jamolxonov H "Hozirgi o'zbek adabiy tili" - Toshkent, 2013 -yil B 281-282) Ingliz tilida ham sinonim so'zlarning gapdagi o'rni va qo'llanilishi juda muhim:

Sue has bought a book

Sue has purchased a book.

Buy (sotib olmoq) va purchase (xarid qilmoq) so'zlari sinonimdir. Biroq har doim ham emas, ba'zi sinonimlarda boshqa sinonim izohlagan ma'no bo'lmasligi mumkin. Bu uning kognitiv ma'nosidan kelib chiqadi.

Nutqda turlicha sinonimik birliklar kuzatiladi. Masalan:

Look (qaramoq) fe'li take a look (qaramoq) frazasi bilan sinonimik hosil qiladi.

Ikkinchidan birikmali holatda sinonim bo'lishi mumkin.

Masalan:

Buy into a company³ birikmasi (kompaniyaning bir qismi ulushini sotib olmoq, ya'ni hissador bo'lmoq) birikmasi purchase she shares of a company⁴ birikmasi bilan sinonimlikni hosil qiladi. Buy fe'lining "Ishonmoq" ma'nosi ham mavjud, biroq bu o'rinda u purchase fe'li bilan sinonim bo'la olmaydi, chunki purchase fe'lida "Ishonmoq" ma'nosi yo'q. Qolaversa, have a bought it⁵ iborasi ma'nosi "O'ldirmoq" bo'lib, bu o'rinda ham have purchased it iborasi bilan sinonimlik hosil qilmaydi. Ingliz tilida uyga kelgan holatda I've purchased the beer darling.. "Azizam, ichimlik olib keldim..." deya purchase fe'li bilan ifodalanadi, buy fe'li "olib kelmoq" ma'nosida qo'llanilmaydi. Har bir so'zlovchi o'z nutqida bu kabi sinonimlardan unumli foydalanishi lozim. Ana o'shanda uslubiy xilma-xillikni va adabiy tilning o'ziga xos funksiyasini yaqqol ko'rsatib bergan bo'lamiz. (Xolmonova Z "Tilshunoslikka kirish" - Toshkent, 2020-yil B 97-98)


O'zbek, ingliz va bir qator shu kabi tillarda muloqot jarayonida mahorat bilan sinonim so'zlardan unumli foydalansak, nutqimizning barqaror, go'zal va bo'yoqdorlik darajasini

³ Ritscher B "First steps in theoretical and applied linguistics" - Budapest, 2006 year B 69

⁴ Ritscher B "First steps in theoretical and applied linguistics" - Budapest, 2006 year B 69

⁵ <https://www.cambridge.org/core/journals/english-language-and-linguistics//12.03.2022y>





oshirgan bo`lamiz. Xulosa sifatida shuni aytamanki, har bir til o`zining imkoniyatlarini nutqda namoyon qila olishida so`zlar eng muhim vositadir. Ana shu so`zlarni sinonimlar bilan sayqallasak, o`z maqsadimizga erishgan holda yuqoridagi nazariyalarga amal qilgan bo`lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A “O`zbek tilining sinonimlar lug`ati ”- Toshkent , 1974 –yil.
2. Jamolxonov H “ Hozirgi o`zbek adabiy tili ”- Toshkent , 2013 –yil
3. Ritsher B “First steps in theoretical and applied linguistics”- Budapest , 2006 year
4. Xolmonova Z “ Tilshunoslikka kirish ”- Toshkent , 2020
5. [https://www.cambridge.org/core /journals/english-language-and-linguistics](https://www.cambridge.org/core/journals/english-language-and-linguistics) // 12.03.2022y

